

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
(PhD).03/28.08.2024.T.181.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

ABDIXAMIDOV NURBEK URAL O'G'LI

**URUG'LIK CHIGITNI SARALASH VA TOZALASH USKUNASINING
ISHCHI QISMLARI KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Abdixamidov Nurbek Ural o‘g‘li

Urug‘lik chigitni saralash va tozalash uskunasining ishchi qismlari
konstruksiyasini takomillashtirish..... 3

Абдихамидов Нурбек Урал угли

Совершенствование конструкции рабочих органов семясортировочно-
очистительного оборудования..... 21

Abdikhamidov Nurbek Ural ugli

Improvement of the construction of the working parts of the seed sorting and
cleaning equipment..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
(PhD).03/28.08.2024.T.181.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

ABDIXAMIDOV NURBEK URAL O‘G‘LI

**URUG‘LIK CHIGITNI SARALASH VA TOZALASH USKUNASINING
ISHCHI QISMLARI KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD /T4434 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tdmau.uz/>) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djamolov Rustam Kamolidinovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Safarov Nurali Kudratovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rosulov Ruzimurad Xasanovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi "Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti" huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/28.08.2024.T.181.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 18-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190100, Termiz sh., Islom Karimov ko'chasi, 288 A-uy. Tel.: (+99876) 221-87-20; e-mail: termizmti@mail.ru).

Dissertatsiya bilan "Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti" Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 2-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190100, Termiz sh., Islom Karimov ko'chasi, 288 A-uy. Tel.: (+99876) 221-87-20; e-mail: termizmti@mail.ru (Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti yangi bino).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 6-mart kuni tarqatildi.

(2025-yil «5» martdagi 2 - raqamli reestr bayonnomasi).



F.U.Karshiyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

O.Sh.Ochildiyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.f.d

M.K.Urosov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo paxta bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, paxta yetishtiruvchi mamlakatlarda paxtaning yangi seleksiya navlarini yetishtirish va rayonlashtirish, urug'lik chigit tayyorlash texnologiyalarini rivojlantirish hisobiga maxsulot iste'mol xususiyatlarini yanada yaxshilash va ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish evaziga uning ulgurji narxlarni kamaytirish masalalarining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shunga ko'ra dunyo bozorida paxta urug'lik chigitining sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish, uni sifatli saralash bilan mag'zi to'q urug'liklarni ajratish asosida unib chiqish quvvatini oshirish, urug' sarfini kamaytirish, kasallikka chidamliligini oshirish maqsadida urug'lik chigit ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida, shuningdek, uni saralash jarayonida mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilish, mahsulot ishlab chiqarish harajatlarini kamaytiruvchi resurstejamkor texnologiyalarni yaratish muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Jahon tajribasida urug'lik chigitni ekishga tayyorlashning texnika va texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha keng miqyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu sohada, jumladan tukli urug'lik chigitni aerodinamik tozalash va saralashning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, chigitlarni fraksiyalarga ajratishda titkilanish darajasini oshiruvchi moslamali resurstejamkor uskunalarni yaratish vazifalari qo'yilmoqda. Ishlab chiqarishning har bir bosqichida mahsulot sifati va miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qiluvchi texnikaviy yechimlarini, urug'lik chigit tayyorlashning texnologik jarayonida uning dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolishni, energiya sarfini kamaytirish imkonini beradigan, mahsulot sifatini boshqara oladigan texnologiyalarni ishlab chiqish, ishlash rejimlari va ko'rsatkichlarini optimallashtirish yo'nalishida ilmiy tadqiqot olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va paxta xom ashyosini qayta ishlash rentabelligini, shu bilan birga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, shu jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yiladagi mo'ljalangan yangi O'zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni, jumladan "...Miliy iqtisodiyot barqarorligi ta'minlash va yangi ichki mahsulotda sanoatsiyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilinib, bunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish...¹" vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan tukli urug'lik chigitni saralashda urug'liklarning 1000 dona massasini oshirish ularning unuvchanligini oshishiga va paxta xosildorligini yuqori bo'lishga olib keladi, shuning uchun chigitni saralash uskunasi takomillashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF60-son "2022-2026 yiladagi mo'ljalangan yangi O'zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-son “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-yanvar “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 11-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-dekabr “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 391 - sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada hizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtdagi ilmiy tadqiqotlarni tahlili natijasi shuni ko‘rsatdiki, urug‘lik chigitni ekishga tayyorlashda asosan uni tozalash va saralash jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilgan.

Urug‘lik chigitlarni ekishga tayyorlashning muhimligi bo‘yicha xorij olimlaridan Shyam Barampuram, George Allen, Sergei Krasnyanski, Sushma Sharma, V.S.Mor, S.Sanogo, M.Sacande, P.Van Damme, Jyoti Jhawar va boshqalar, respublikamiz olimlardan M.N.Bushuyev, A.I.Shleyxer, D.K.Qosimov, L.F.Koloyarov, A.K.Tashlanov, N.A.Maysuryan, A.Obidov, Ye.Ya.Yasheva, Sh.G.Aydarov, V.G.Rakipov, P.Shaimov, S.To‘xtaboyev, V.X.To‘ychiyev, A.Rasoboyev, A.Yusubaliyev, X.T.Axmedxodjayev, R.K.Djamolov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatdiki tukli urug‘lik chigitlarni saralash jarayonlarida uskunalarning yuqori ish unumdorligida ishlash samaradorligi yetarli emasligini ko‘rsatdi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertasiya tadqiqoti Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining ilmiy tadqiqot rejalari asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tukli urug‘lik chigitni tozalash, saralash uskunasi yuqori ish unumdorligida saralash samarasini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

urug‘lik chigitni tozalash, saralash usullarini va uskunalarni konstruksiyalarini taxlil qilish;

chigit uzatish tarnovida tukli chigit harakati davomida yoyilishini nazariy tahlillari;

amaliy tajribalar asosida chigitni uzatish tarnovining og‘ish burchagini, yoyish uchun moslama parametrlarini va ajratish kamerasidagi chigitni donalovchi taroq o‘lchamlarini aniqlash;

tukli urug'lik chigitni saralash, tozalash uskunasining ratsional parametrlarini to'liq omilli tajribalar asosida aniqlash;

takomillashtirilgan tozalash uskunasining ishlab chiqarish sinovlari va iqtisodiy samara hisobi.

Tadqiqotning obyeksi sifatida tukli urug'lik chigitni tozalash, saralash ChSA rusumli uskunasining tajriba namunasi olingan.

Tadqiqotning predmeti urug'lik chigit tayyorlash texnologik tizimida tukli chigitni saralash texnologiyasi, usullari, vositalari va jarayon ko'rsatkichlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tadqiqot jarayonida matematik tahlil, nazariy mexanika, hisobiy usullar, tajriba analizi, ko'p omilli tajribalar va matematik statistika usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

tukli chigitni saralashda chigit uzatuvchi tarnovga chigitni yoyish uchburchakli moslamali va ajratish kamerasida chigitni donalovchi taroq moslamasi bilan takomillashtirilgan saralash uskuna ishlab chiqilgan;

chigitlarning tebranuvchi taroq sirtida sochilishini yaxshilash hamda shikastlanishini kamaytirishda o'rnatilgan prujinaning elastik kuchi ta'sirida uzatishdagi o'zgaruvchan burchakka ikkinchi tartibli differensial tenglamani yechish orqali bog'liqlik ifodasi ishlab chiqilgan;

ikkinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalardan foydalanib, rostlanuvchi taroq sirtidagi chigitlarni saralashdagi traektoriyalarini chigitni donalovchi taroqni vertikal devorga nisbatan o'rnatish burchagiga, taroq qoziqlari orasidagi masofalarni o'zgartirishiga bog'liqlik ifodasi ishlab chiqilgan;

amaliy tajribalar asosida chigit uzatish tarnovining og'ish burchagi, chigit donalovchi taroqni o'rnatish burchagi va taroq qoziqlari oraliq masofasin aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqilgan tukli chigitni saralash uskunasini ChSA ni takomillashtirilgan holda samarali kompanovkadagi tukli urug'lik chigitni saralagichning konstruksiyasi tavsiya qilingan;

yuqori samarali saralagichning ishchi organlarni optimal parametrlari va ish rejimlari asoslandi, bu yuqori tozalash samarasini, chigitlarning mexanik shikastlanishini kamaytirishini, yuqori ish unumdorlikda resurslarni sezilarli darajada tejatlashini ta'minladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Nazariy va amaliy tadqiqotlarning o'zaro mosligi, hisoblashlarda standart usullardan va vositalardan foydalanilganligi hamda tavsiya etilgan tukli urug'lik chigitni saralash uskunasini ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chigitni saralash va tozalash texnologik ko'rsatkichlarni hisoblashning nazariy modellari olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tukli urug'lik chigitni saralash uskunasining takomillashtirilishi asosida yuqori ish unumdorligida ishlashini ta'minlashi. Yaratilgan uskuna va mashinalar asosida urug'lik chigit texnologik joylashuvi ketma-ketligi ishlab chiqilib, joriy etilganligidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Urug‘lik chigitni tozalash, saralash uskunasi takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy ishlar natijalari asosida:

Surxondaryo viloyati “SURXONDARYO BEST SEEDS” MCHJ dagi urug‘lik chigit tayyorlash sexiga takomillashtirilgan tukli chigit saralash ChSA uskunasi joriy etildi. (“O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi” Qishloq xo‘jaligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabrda №05/04-04-691-sonli ma‘lumotnomasi.).

Natijada takomillashtirilgan ChSA uskunasi 3000 kg/soat ish unumdorligida amaldagi uskunaga nisbatan urug‘lik fraksiya chiqishi 6,8 % ga, 1000 dona chigit massasi 4,1 gr. ga yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Taklif etilgan chigit saralash uskunasi takomillashtirish xisobidan uruglikning unuvchanligi 3 % ga oshishidan urug‘lik chigitni gektariga sarfini 5 kg ga kamaytirishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha 6 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro, 3 ta Respublika konferensiyalarda va ilmiy seminarlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini e‘lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shu jumladan xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 103 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot ob‘ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nashr etilgan ishlar, dissertasiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning “**Urug‘lik chigitni tozalash, saralash bo‘yicha ilmiy ishlar tahlili**” deb nomlangan birinchi bobi, urug‘lik chigitni saralash bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar taxlili, saralash uskunalari va ularning kamchiliklari bo‘yicha tahlillar keltirilgan.

Saralagichga urug‘lik chigitni uzatishda UPS qabul qilish bunkerining ish unumdorligini oshirish bilan tukli chigitlar tarnovga to‘planib tushishi ham ortadi va ularni saralash imkoniyati pasayadi. Shuning uchun tukli chigitni tarnovda yoyilib uzatilishi va ajratish kamerasiga chigitlarning donalab berilishi saralash samarasining oshishiga olib keladi. Chunki chigitlar tukli xolatida harakatlanishi chog‘ida bir biriga yopishgan xolatida urug‘lik fraksiya bunkeriga o‘tib ketishi ixtimoli yuqori bo‘ladi.

Chigit saralash uskunasi ChSA ga to‘planib tarnovga tushayotgan chigitlarni tarnovda yoyilishini ta‘minlash uchun tarnovda tituvchi taroq moslamasini o‘rnatish va ajratish kamerasini chigitni donalash uchun qoziqli taroq moslamasi bilan jihozlash tavsiyasi berildi (1-rasm).

Takomillashtirilgan ChSA uskunasida saralash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: tarnov 1 orqali tukli chigit uskunaga uzatiladi, undan havo quvuri 2 orqali chigitlar yuqoriga havo tezligi yordamida ko'tariladi.



Chigit tarkibidagi har xil tosh, metall parchalari kabi og'ir aralashmalar pastga tushadi. Urug'lik chigitlar ajratish kamerasi 3 ga yetganida yo'naltirgich 5 orqali chigitning yo'nalishi o'zgaradi va og'ir chigitlar pastga tushib vakuum-klapen 9 orqali urug'lik fraksiyaga ajraladi, yengil chigitlar esa harakatini davom ettirib, texnik chigit fraksiya kamerasi 7 ga yig'ilib vakuum-klapen 8 orqali tashqariga chiqariladi, chigitdan yengil aralashmalar esa 10 quvur orqali siklonga yo'naltiriladi.

Chigitlarni ajratish kamerasida donalash uchun harakat yo'liga rostlovchi taroq 4 moslamasi o'rnatilgan. Taroq moslamasi havo quvuri 2 dan ajratish kamera 3 ga tukli chigitni kirishida ajratishni yaxshilash uchun taroq 4 moslamasida chigitlar

donalanib ajratiladi, shunda bir biri bilan ilashib, to'p xolatdagi chigitlar ajarilishi bilan og'ir chigitlar pastga va yengillari yuqoriga qarab yo'nalishini davom ettiradi.


Shunda urug'lik fraksiyaga texnikni yoki texnik fraksiyaga urug'likni aralashib ketishining oldi olinadi.

Rostlovchi otrajatel 6 bilan chigitlarni fraksiyalarga ajratilishi rostlansa, 11 yo'naltirgich bilan texnik fraksiyaga o'tishni rostlanadi.

Dissertasiyaning **“Urug'lik chigitni saralash jarayonining nazariy tahlillari”** nomli ikkinchi bobida tebranuvchi taroq sirtidagi tukli chigitlar harakatini, havo quvuri yordamidagi chigitlarning rostlovchi taroqqa uzatilishidagi va rostlovchi taroq ta'siridagi chigitlarning harakat tahlili keltirilgan.

Shnek orqali saralash uskunasi uzatilayotgan chigitlarni tebranuvchi taroq moslamasi yordamida tarnovda sochiluvchanligini yaxshilash orqali chigitlarni ajratishda taroqqa prujina o'rnatilgan, bu esa shnekdan tushishdagi chigitlarni urilishini so'ndirish va chigitlar ma'lum massaga ya'ni og'irlikka ega bo'lganidan keyin pastga bosilish orqali tarnovda shikastlanishi kamaytirilgan holda uzatiladi.

Dastavval tebranuvchi taroq moslamasi sirtidagi chigitlarning harakatini tahlil qilamiz.



2-rasm. Tebranuvchi taroq sirtidagi chigitlarning harakat sxemasi

Tebranuvchi taroq sirtidagi chigitlarga ta'sir qiluvchi kuchlar ta'siridagi uzatilishini tahlili keltirilgan.

$$F = k \cdot l \Delta = k \cdot a \cdot \sin \varphi \quad (2.1)$$

(2.1) F-prujinaning elastiklik kuchi; P-chigitlarning og'irlik kuchi; k-prujinaning bikrlilik koeffitsienti.

Tebranuvchi taroqning S nuqtasidagi chigitlar uchun harakat differensial tenglamasini tuzamiz

$$\begin{aligned} J_0 \cdot \ddot{\varphi} &= P \cdot C_1 O - F \cdot B_1 O \\ J_0 \cdot \ddot{\varphi} &= P \cdot C_1 O - F \cdot B_1 O \end{aligned} \quad (2.2)$$

Tebranuvchi taroq sirtidagi chigitlarning harakati natijasida ma'lum burchak ostida tebranish hosil bo'ladi, bunda $\cos \varphi = 1$ va $\sin \varphi = \varphi$ deb qabul qilamiz va (2.1) tenglikni (2.2) tenglikka qo'yamiz.

$$J_0 \cdot \ddot{\varphi} = P \cdot l - F \cdot a^2 \cdot \varphi \quad (2.3)$$

Bundan;

$$\varphi = C_1 \cdot \cos(z \cdot t) + C_2 \cdot \sin(z \cdot t) + \frac{P \cdot l}{k \cdot a^2} \quad (2.4)$$

(2.4) tenglikdagi C_1 va C_2 integral doimiylarini boshlang'ich va chegaraviy shartlardan foydalanib aniqlaymiz.

$$t = 0; \varphi = 0; \dot{\varphi} = 0 \text{ bundan } C_1 = -\frac{P \cdot l}{k \cdot a^2} \quad C_2 = 0 \text{ aniqlangan integral doimiylarini}$$


(2.4) tenglikka qo'yamiz.

$$\varphi = \frac{P \cdot l}{k \cdot a^2} \cdot (1 - \cos(z \cdot t)) \quad (2.5)$$


(2.5) tenglik chigitlarning tebranuvchi taroq sirtida sochilishini yaxshilash hamda shikastlanishini kamaytirishda o'rnatilgan prujinaning elastik kuchi ta'sirida

uzatishdagi o'zgaruvchan burchakka bog'liq ifodasini Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlili keltirilgan.

Saralash kamerasiga o'rnatilgan rostlovchi taroq moslamasida chigitlar donalashib ajratiladi, shunda bir-biri bilan ilashib, to'p holatdagi chigitlar ajralishi bilan og'ir chigitlar pastga va yengil chigitlar yuqoriga qarab yo'nalishda davom etadi. Shu orqali texnik fraksiyaga urug'likni, urug'lik fraksiyaga texnikni aralashib ketishini kamaytirishga erishiladi.




3-rasm. Tebranuvchi taroq sirtidagi chigit oqimi harakatini prujina bikrligini turli xil qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi $k_1 = 1.2 N/mm$; $k_2 = 0.8 N/mm$; $k_3 = 0.4 N/mm$



4-rasm. Tebranuvchi taroq sirtidagi chigit oqimi massalarining turli xil qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi $m_1 = 2.5 gr$; $m_2 = 2 gr$; $m_3 = 1.5 gr$

Donalangan tukli chigitlarni rostlanuvchi taroqqa ta'siri natijasidagi saralash jarayondagi tashqi kuchlar ta'siridagi ajralishini taroqning oraliq masofalariga, taroq uzunligiga va vertikal xolatda joylashgan og'ish burchaklariga bog'liqlik ifodasini aniqlaymiz. Buning uchun dastavval tukli chigitlarga rostlanuvchi taroq ta'sirini o'rganib chiqamiz.



5-rasm. Rostlanuvchi taroq sirtidagi chigitlarning harakat sxemasi

Bu yerda β – chigitni donalovchi taroqni vertikal devorga nisbatan o‘rnatish burchagi, h – taroq qoziqlari orasidagi masofalarni L – taroq qoziqlarining uzunligi, F_0 – tukli chigitlarni taroq sirtidagi sudrash kuchi, $P_0 = c \cdot g^2$ – havo oqimining aerodinamik kuchi, $m \cdot g$ – tukli chigitning og‘irlik kuchi, $F_{ish} = f \cdot R_n$ – tukli chigitni roslavchi taroq sirtidagi ishqalanish kuchi.

Tukli chigitlarni saralashda rostlanuvchi taroq sirtidagi harakatini va chigitlarning ajralishini ta‘minlashdagi tashqi kuchlarni ta‘sirini nazariy tahlili keltiramiz.

$$F_0 = F_{ish} + m \cdot g \cdot \cos \beta - P_0 \cdot \cos \beta; R = P_0 \cdot \sin \beta; F_{ish} = f \cdot P_0 \cdot \sin \beta \quad (2.6)$$

Saralovchi taroq ta‘sirida yaroqli tukli chigitlarni saralashda taroq tishlari orasidagi masofalarni $h = 8 \div 24_{\text{MM}}$ o‘zgartirish orqali tukli chigitlarga ta‘sir qiluvchi tashqi kuchlar ta‘siridagi differensial tenglamasini ifodalaymiz.

$$; m \cdot \ddot{x} = F_0 \cdot \cos(90^\circ - \beta) + R \cdot \cos \beta - F_{uuu} \cdot \cos(90^\circ - \beta) \quad (2.7)$$

Bu yerda $R = P_0 \cdot \sin \beta = c \cdot g^2 \cdot \sin \beta;$
 $F_0 = F_{ish} - P_0 \cdot \cos \beta = f \cdot c \cdot g^2 \cdot \sin \beta - c \cdot g^2 \cdot \cos \beta;$ qiymatlarni (7) differensial tenglamaga qo‘yib soddalashtiramiz va differensial tenglamani integrallaymiz.

$$m \cdot \ddot{x} = c \cdot g^2 \cdot (f \cdot \sin \beta - \cos \beta) \cdot \sin \beta - c \cdot g^2 \cdot \sin \beta \cdot \cos \beta - f \cdot c \cdot g^2 \cdot \sin^2 \beta \quad (2.8)$$


Bu ifodani soddalashtirib ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglama ko‘rinishga keladi

$$\ddot{x} = -\frac{2 \cdot c \cdot g^2}{m} \cdot \sin \beta \cdot \cos \beta \quad (2.9)$$


Masalani yechimi bo‘yicha harakat tenglamasini aniqlaymiz.

$$x = \frac{g_0}{k^2} \cdot (1 - e^{-k^2 \cdot t}) \quad (2.10)$$

(2.10) harakat tenglamasini Maple dasturidan foydalanib roslavchi taroq sirtidagi chigitlarni saralashdagi traektoriyalarini β – chigitni donalovchi taroqni vertikal devorga nisbatan o‘rnatish burchagiga, taroq tishlari orasidagi masofalarni $h = 8 \div 24_{\text{MM}}$ o‘zgartirishiga bog‘liqlik grafiklarini keltiramiz.



6-rasm. Rostlovchi taroq sirtida chigitlarning saralashdagi harakatini qiyalik burchagining turli xil qiymatlarida vaqtga bog‘liq grafigi
 $\beta_1 = 15^\circ$, $\beta_2 = 30^\circ$, $\beta_3 = 45^\circ$



7-rasm. Rostlovchi taroq sirtida chigitlarning saralashdagi harakatini taroq qoziqlari orasidagi masofasini turli xil qiymatlarida vaqtga bog‘liq grafigi
 $h_1 = 24\text{ mm}$, $h_2 = 16\text{ mm}$, $h_3 = 8\text{ mm}$

Yuqoridagi grafiklar tahlilidan chigitlarni saralashda taroqni vertikal devorga nisbatan o‘rnatish burchagi $\beta_3 = 45^\circ$ bo‘lganda va taroq qoziqlari orasidagi masofasini $h_2 = 16\text{ mm}$ oraliqdagi qiymatlarida saralash samaradorligi oshishini ko‘rishimiz mumkin. Buni chigitlarning massasidan kelib chiqqan holda yaroqsiz chigitlarni saralashda taroq sirtidagi chigitlarning grafikdagi traektoriyalaridan ko‘rishimiz mumkin.

Dissertasiyaning **“Urug‘lik chigitini tozalash va saralash uskunasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy izlanishlar”** deb nomlangan uchinchi bobida tukli urug‘lik chigitni saralash uskunasi uzatish qismining takomillashtirilgan konstruksiyasini asoslash, tukli chigitni tarnovga uzatishda sochish va yoyish moslamalarining parametrlarini aniqlash, chigit uzatish tarnovining og‘ish burchagini chigitlarni yoyilishiga ta‘sirini o‘rganish, saralash kameraga o‘rnatilgan chigitni donalovchi taroq moslamasining parametrlarini aniqlash va asosiy parametrlarini

asoslash bo'yicha maxsus ishlab chiqilgan usullar hamda amaliy tadqiqotlar natijalari bayon etilgan.

Tukli chigit tuk darajasi sababli bir biri bilan yopishib, to'plangan xolda chigit saralagichning tarnoviga tushadi. Tarnovdan oqishda sochilishga ulgurmasdan quvurga kirib, to'g'ri saralash kamerasi tomon yo'naladi va yo'nalish vaqtida qisman to'pdan ajralgan chigitlar saralashda fraksiyalarga ajralish vaqtida urug'likka texnik, ya'ni mayda chigitlar ham qo'shib ketishi mumkin. Shuning uchun to'p xolatidagi chigitlarni uskuna quvuriga uzatishdan oldin to'plarni ajratish va tarnov yuzasida bir xilda taqsimlanishidan saralash sifatini oshirishga erishamiz. Buni tarnovga chigit uzatish qurilmasi tagiga o'rnatilgan taroqsimon ajratuvchi mexanizm bilan amalga oshiradi.

Chigit uzatuvchi shnek orqali kelayotgan chigit tarnovga tushishda taroqli mexanizmga urilishi oqibatida to'p chigit sochiladi. Taroqdan o'tishda chigit o'z massasi bilan taroqni harakatga keltiradi, taroqqa o'rnatilgan prujina taroqni harakatlantirib, tukli chigitlarni titilishini yaxshilaydi. Ushbu mexanizmining asosiy ko'rsatkichlarini tajriba asosidan aniqlandi.

Quyidagi 1-jadvaldan ko'rinadiki, taroqsimon tebranuvchi mexanizm taroqlari oraliq masofasini 70 mm da va tarnovga o'rnatilgan yo'naltiruvchi elementlar orasidagi masofaning 50 mmda texnik fraksiyadagi 1000 dona chigit massasi 88 grammni tashkil etib, urug'lik fraksiyada esa 125 grammni tashkil etmoqda, bu esa saralash jarayoni pastligini bildiradi, lekin urug'lik fraksiyaning iflosligi 1,2 % ni tashkil etib, dastlabki ko'rsatkichdan 0,6 % ga kamayganligini ko'rsatadi. Qolgan variantlardan tuzukroq ko'rsatkichga ega taroqlar orasidagi masofa 80 mm da va yo'naltiruvchi elementlar orasidagi masofa 70 mm da texnik fraksiya 1000 dona chigit massasi 87 grammni, urug'lik fraksiya 1000 dona chigit massasi 126 grammni tashkil etib, dastlabki chigitdan 1 gramm ko'pligini e'tiborga olsak saralash jarayoni yaxshilanayotganligini ko'rsatadi. Bu xolatda urug'lik fraksiya ifloslik darajasi 0,9 % ni tashkil etib, tozalash jarayoni ham boshqa variantlarga nisbatan yaxshilanganligini ko'ramiz. Bu esa uzatilayotgan chigitning sochiluvchanligini ortishidan bo'ladi. Lekin, saralash jarayonining sifatini belgilashda 1000 dona chigit massasining ortishi 2-5 grammgacha bo'lishi belgilangan bo'lsa, tajriba ishlarini davom ettirildi.

Tajriba uchun Buxoro-10 seleksiya navli, 2-avlodli, dastlabki chigitning 1000 donasi massasi 125 gr.ni, iflosligi 1,8 % ni tashkil etdi (1-jadval).

Chigitni donalovchi taroq moslamasining taroqlari uzunligini chigitni saralash kamerasiga tashuvchi quvur e'niga tenglashtirildi, chunki quvurdan chiqayotgan chigitlar taroqqa tegishi va unda harakatlanib, bir-biriga yopishib yotgan chigitlarning ajralishini xisobga olinadi. Chigitlarning donadorligini oshirishda taroqlar oraliq masofasi h va taroqlarning vertikal devorga nisbatan joylashtirish burchagi α (8-rasm) katta ahamiyatga ega bo'ladi.


Tukli chigitni saralash uskunasi uzatish tarnovining takomillashtirilganidan so'ng uzatilayotgan chigitni saralash jarayonida donadorligini oshirish maqsadida saralash kamerasiga o'rnatilgan taroq moslamasining taroqlar oraliq masofasi h ni chigitning o'lchamlaridan kelib chiqib 8, 16, 24 mm ga o'rnatib tajribalarni olib borildi.

1-jadval

Chigit uzatish tarnovini takomillashtirishning saralash sifatiga ta'sirini o'rganish

Taroqsimon tebranuvchi mexanizm taroqlari oraliq masofasi, mm	Tarnovga o'rnatilgan yo'naltiruvchi elementlar oraliq masofasi, mm	1000 dona chigit massasi, gr.		Urug'lik fraksiyaning iflosligi, %
		Texnik fraksiyada	Urug'lik fraksiyada	
70	50	88	125	1,2
	70	92	123	1,0
	90	98	120	1,3
80	50	95	125	1,1
	70	87	126	0,9
	90	105	122	1,3
90	50	98	120	1,4
	70	94	122	1,4
	90	102	118	1,6

Taroqlar oraliq masofasini o'zgartirish uchun o'qqa uzunasi bo'ylab paz ochilib, taroqlarning yengil surilishini ta'minlandi. Tajribalarda ChSA saralash uskunasi uchun 2500 kg/soat ish unumdorligida chigitlarning fraksiyalarga ajralishi va fraksiyalarning tarkibidagi 1000 dona chigit massasining o'zgarishi va urug'lik fraksiyaning iflosligi aniqlandi (2-jadval).



8-rasm. Tukli chigitni donalovchi taroq moslamasi

a) qoziqlarni o'rnatish; b) 1-taroq, 2-o'q, 3-dastak, 4-saralagich devori, 5-saralash kamerasi

Tajribalarni o'tkazishda quyidagi chigitlardan foydalanildi, bunda Buxoro-102 seleksiya navli chigitlarning dastlabki ko'rsatkichlari: 1000 dona chigit massasi 117 gramm, iflosligi 1,5 %, chigitning mexanik shikastlanishi 3,6% ni tashkil etdi.

2-jadval

Donalovchi moslama taroqlari oraliq masofasini chigit sifat ko'rsatkichlariga ta'siri

Taroqlar oraliq masofasi, h mm	Chigitning fraksiyalarga ajralishi, %		1000 dona chigit massasi, gr		Chigitning mexanik shikastlanishi, %
	Texnik	Urug'lik	Texnik	Urug'lik	
Taroqlarning vertikal devorga nisbatan joylashtirish burchagi $\alpha-15^0$					
8	8,5	90,1	98	117	3,5
16	6,8	91,8	100	115	3,6
24	6,5	92,1	102	115	3,5
Taroqlarning vertikal devorga nisbatan joylashtirish burchagi $\alpha-30^0$					
8	5,5	93,1	88	120	3,5
16	4,0	94,6	76	122	3,4
24	3,8	94,8	92	119	3,5
Taroqlarning vertikal devorga nisbatan joylashtirish burchagi $\alpha-45^0$					
8	5,0	93,6	96	118	3,5
16	4,2	94,4	99	117	3,6
24	4,0	94,6	94	119	3,4

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, taroqlar oraliq masofasining 8 mm da, taroqlarning vertikal devorga nisbatan joylashtirish burchagi $\alpha-15^0$ da urug'lik fraksiya miqdori 90,1 % ni tashkil etib, 1000 dona chigit massasi 117 grammni, texnik chigit fraksiyasida esa 98 grammni tashkil etmoqda. Qolgan o'lchamlarida 1000 dona chigit massasining dastlabkidan ham tushib ketganini ko'ramiz, bunda urug'lik fraksiyalarni texnikka qo'shilishidan dalolat beradi. Jadvaldagi ko'rsatkichlarga e'tibor berilsa, taroqlarning vertikal devorga nisbatan joylashtirish burchagining $\alpha-30^0$ va 45^0 da saralashda urug'lik fraksiya chiqishining 94,8 % gacha ko'payishini ko'ramiz, 1000 dona massasining 117 gr.dan 122 gr.gacha o'zgarishini ko'ramiz.

Donalovchi taroqning devorga o'rnatish burchagini $\alpha-30^0$ da va taroqlar oraliq masofasining 16 mm da 1000 dona chigit massasi eng katta ko'rsatkichga 122 grammga ega bo'ldi. Bu yerda taroq moslamasining chigitni mexanik shikastlanganligiga ta'siri o'zgarmadi.

Dastlabki o'tkazilgan tajribalar natijasida ChSA uskunasing saralash samarasiga eng ko'p ta'sir etuvchi omillar tanlab olindi: chigit uzatish tarnovining gorizont tekislikka nisbatan og'ish burchagi X_1 ; saralash kamerasidagi donalovchi taroq moslamasining taroqlar oraliq masofasi X_2 ; taroq moslamasining uskuna devoriga nisbatan egilish burchagi X_3 . Saralash sifatini baxolovchi kriteriya chegarasi sifatida asosan urug'lik fraksiya tarkibida 1000 dona chigit massasining U1 oshishi olindi, sababi urug'lik yoki texnik fraksiyani chiqishi unuvchanlik ko'rsatkich bo'yicha o'zgaruvchan bo'ladi.

Tajribalarda Buxoro-102 seleksiya navli chigitlar olindi va ularning dastlabki taxlillari: chigit tukliligi 9,2%, 1000 dona chigit massasi 118 gramm, iflosligi 1,1 %, namligi 8,2 %, chigitning mexanik shikastlanishi 3,3% ni tashkil etdi.

1000 dona chigit massasining U_1 bo'yicha regressiya tenglamasi olindi:

$$Y_1=3.994+0.440X_1+0.220X_2+0.150X_3-1.177X_1^2+0.163X_1X_2+0.071X_1X_3-0.310X_2^2-0.179X_2X_3-0.427X_3^2 \quad (2.11)$$

Hosil bo'lgan optimizatsiya masalasi tasodifiy qidiruv usuli va zamonaviy kompyuter amaliy programmalar dasturlari yordamida yechildi va quyidagi optimal yechimlar olindi: chigit uzatish tarnovining gorizontal tekislikka nisbatan og'ish burchagi $X_1=47$ gradus; saralash kamerasidagi donalovchi taroq moslamasining taroqlar oraliq masofasi $X_2=19$ mm; taroq moslamasining uskuna devoriga nisbatan egilish burchagi $X_3=32$ gradus.

“Tukli urug'lik chigitni tozalash, saralash uskunasining ishlab chiqarishdagi sinov natijalari va iqtisodiy samara xisobi” deb nomlangan to'rtinchi bobida ishlab chiqarish sinov natijalari keltirilgan.

ChSA tukli chigitni saralash uskunasida tajriba sinovlarni o'tkazish uchun Surxondaryo viloyati "SURXONDARYO BEST SEEDS" MChJdagi urug'lik chigit tayyorlash sexida tukli chigit tayyorlash tizimiga o'rnatilgan ChSA uskunasi takomillashtirildi

ChSA saralash uskunasini takomillashtirishda chigit saralash kamerasiga taroqli moslamani o'rnatish jarayonidan foto-lavxalarni quyidagi 10-rasmida ko'rsatilgan. Taroqli donalovchi moslamani chigitni II-zona quvuridan chiqishda, III-zona saralovchi kameradagi chigit yo'naltiruvchi burchak tagidan 100 mm pastga o'rnatildi. Chunki dastlabki tajriba natijalaridan aniqlandiki taroqli moslama orasidan chigit o'tishi bilan yo'naltirgichga bir tekis silliq xolatda uchrashishi va chigitlarning yo'naltirgich yuzasida harakatlanib yo'nalishini to'g'irlanishi kerak bo'ladi.

Urug'lik sexdagi ChSA uskunasini to'liq takomillashtirib tajriba sinov ishlari olib borildi, bunda solishtirish uchun tuksizlantirish liniyasidagi ChSA uskunasidan foydalanildi 9-rasm.



a)



b)

9-rasm. Solishtiruv sinovlari uchun tayyorlangan tizim va takomillashtirilgan ChSA uskunasining fotosurati

a) tukli chigit tayyorlash texnologiyasi; b) donalovchi taroqli moslama

Tajribalarni o‘tkazish vaqtida qayta ishlanayotgan Buxoro-102 seleksiya navli, R₂ avlodli urug‘lik chigitlardan foydalanildi.

Tajribalarni o‘tkazishdan oldin urug‘lik chigit tayyorlash sexining laboratoriyasida taxlillar o‘tkazildi va quyidagi dastlabki ko‘rsatkichlari aniqlandi:

chigitning tuklilik darajasi - 9,2 %, ifloslik - 1,2 %, mexanik shikastlanganlik - 3,5 %, namlik - 7,8 %, 1000 dona chigit massasi – 119,5 gramm.

Tajriba-sinov natijalari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Tukli urug‘lik chigitni saralash uskunalarini solishtirish tajriba natijalari

Ko‘rsatkichlar	Amalda ishlayotgan saralagich				Takomillashtirilgan saralagich				Farqi +,-
	Qaytarishlar soni			O‘rta qiy.	Qaytarishlar soni			O‘rta qiy.	
	1	2	3		1	2	3		
Ish unumdorlik 2000 kg/soat									
Urug‘lik fraksiya chiqishi, %	91,6	92,2	92,8	92,2	97,0	96,8	96,6	96,8	+4,6
Chigitning 1000 donasi vazni, gramm	121,5	121,6	121,8	121,6	123,2	123,8	123,6	123,5	+1,9
Chigitni mexanik shikastlanishi, %	3,6	3,8	3,5	3,6	3,5	3,2	3,3	3,3	-0,2
Ifloslik, %	0,4	0,38	0,32	0,37	0,13	0,15	0,18	0,15	-0,22
Ish unumdorlik 2500 kg/soat									
Urug‘lik fraksiya chiqishi, %	90,5	91,2	90,8	90,8	96,8	96,5	96,7	96,7	+5,9
Chigitning 1000 donasi vazni, gramm	120,4	120,6	120,5	120,5	122,5	123	122,8	122,8	+2,3
Chigitni mexanik shikastlanishi, %	3,8	4,2	4,0	4,0	3,6	3,8	3,7	3,7	-0,3
Ifloslik, %	0,5	0,48	0,42	0,47	0,25	0,3	0,28	0,27	-0,2
Ish unumdorlik 3000 kg/soat									
Urug‘lik fraksiya chiqishi, %	88,8	88,7	89,0	88,8	95,6	95,8	95,5	95,6	+6,8
Chigitning 1000 donasi vazni, gramm	119,2	119	118,8	119,0	123,5	123,0	122,8	123,1	+4,1
Chigitni mexanik shikastlanishi, %	3,8	4,2	3,6	3,8	3,2	3,0	3,5	3,2	-0,6
Ifloslik, %	0,65	0,7	0,68	0,67	0,3	0,32	0,35	0,32	-0,35

Yuqoridagi 3-jadvaldan ChSA chigit saralash uskunasi ish unumdorligini 2000 kg/soatda urug‘lik fraksiya chiqishi takomillashtirilgan uskunada 4,6% ga yuqori, 1000 dona chigit massasi esa 1,9 gr. ga yuqori ekanligini ko‘ramiz. Ish unumdorligini 2500 kg/soatga oshirilganida urug‘lik fraksiyaning amaldagi uskunada kamayganligini ko‘ramiz, bunda ish unumdorlikni ortishi bilan saralash sifatiga

salbiy ta'siri yuzaga keladi, takomillashtirilgan uskunada esa amaldagisidan 5,9 % ga yuqori ekanligi aniqlandi. 1000 dona chigit massasi esa amaldagi saralagichdan 2,3 gr. ga yuqori ekanligi ko'rinmoqda. Chigitlarning sifatli saralanishidan chigitlarning mexanik shikastlanishi ham kamayganligini ko'ramiz.

Uskunaning ish unumdorligini 3000 kg/soatga o'rnatganimizda amaldagi uskunada urug'lik fraksiya chiqishi kamayib, takomillashtirilgan uskunada 6,8 % ga yuqori bo'ldi, 1000 dona chigit massasi amaldagi uskunada 119,0 grammni tashkil etib, chigit saralanmaganligini ko'rsatdi, takomillashtirilgan uskunada esa 123,1 grammni tashkil etib, amaldagisidan 4,1 gr. ga yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Amaldagi uskunada 1000 dona chigit massasining tushganligi urug'lik chigitlarning texnik fraksiyaga aralashganligidan dalolat beradi.

O'tkazilgan tajriba sinovlar shuni ko'rsatadiki chigitlarning donadorligi yuqori bo'lsa ularni fraksiyalarga ajratishda chigitlarning bir biriga o'tib ketishining oldi olinadi. Taklif etilgan chigit saralash uskunasini takomillashtirish xisobidan chigitlarning unuvchanligi 3 % ga oshishidan urug'lik chigitni gektariga sarfini 5 kg ga kamaytirishimiz mumkinligidan yilliq iqtisodiy samarasi 3,4 mlyard.so'mni tashkil etadi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Respublika bo'yicha eng ko'p ChSA uskunolari ishlatilib kelinmoqda, chunki ularda tozalash-saralashdan tashqari vertikal xolatda joylashuvudini yuqoriga tashishni ham bajaradi. Shuning uchun ChSA uskunalarini takomillashtirish asosida yuqori ish unumdorligida saralash samarasini oshirish muxim xisoblanadi.

2. Taxlillar asosida amalda urug'lik chigit tayyorlash sexlarida ishlatilib kelinayotgan ChSA uskunasini yuqori ish unumdorligida saralash samarasini oshirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

3. Chigitlarning sochilishini yaxshilashda hamda shikastlanishini kamaytirishda prujinaning bikrligi va chigitlarning massalariga bog'liq holda grafiklarda tahlili keltirilgan tebranuvchi taroqning og'ish burchagiq o'zgarishi bo'yicha harakatida prujina bikrligining $k_1 = 1.2 N/mm$ qiymatida hamda chigit to'plam massasining $m_2 = 2 gr$ qiymatida chigitlarni ajralishi va bir tekisda uzatilishini grafiklarda ko'rishimiz mumkin.

4. Rostlanuvchi taroqqa uzatishda chigit massasining $m_2 = 2 gr$ qiymatida havo tezligining $\varrho_2 = 7 m/s$ qiymatida chigitlarni rostlanuvchi taroq uzatishda grafiklarda ko'rishimiz mumkin.

5. Vertikal devorga nisbatan o'rnatish burchagi $\beta_3 = 45^\circ$ bo'lganda va taroq tishlari orasidagi masofasini $h_2 = 16 mm$ oraliqdagi qiymatlarida saralash samaradorligi oshishini ko'rishimiz mumkin. Bunda chigitlarning massasidan kelib chiqqan holda yaroqsiz chigitlarni saralashda taroq sirtidagi chigitlarning grafikdagi traektoriyalaridan ko'rishimiz mumkin.

6. O'tkazilgan ko'p omilli tajriba natijasi bo'yicha chigit uzatish tarnovining gorizont tekislikka nisbatan og'ish burchagi $X_1 = 47$ gradus; saralash kamerasidagi donalovchi taroq moslamasining taroqlar oraliq masofasi $X_2 = 19$ mm; taroq

moslamasining uskuna devoriga nisbatan egilish burchagi $X_3=32$ gradusni tashkil etdi.

7. Ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilgan solishtirma sinovlar natijasida takomillashtirilgan chigit saralash uskunasining ish unumdorligi 3000 kg/soatni tashkil etib, saralangan urug'lik chigitlarning 1000 donasining massasi amaldagisidan 4,1 gr. ga yuqori ekanligini ko'rsatdi.

8. Chigit saralash uskunasini takomillashtirish xisobidan saralangan chigitlarning unuvchanligini 3 % ga oshishidan gektariga chigit sarfini 5 kg ga kamaytirishimiz mumkinligini xisobga olsak, yilliq iqtisodiy samarasi 3,4 mlrd.so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/28.08.2024.Т.181.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИНЖЕНЕРИИ И АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНЖЕНЕРИИ И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

АБДИХАМИДОВ НУРБЕК УРАЛ УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ РАБОЧИХ ОРГАНОВ
СЕМЯСОРТИРОВОЧНО-ОЧИСТИТЕЛЬНОГО ОБОРУДОВАНИЯ**

**05.02.03- «Технологические машины. Роботы. Мехатроника и системы
робототехника»**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Термез-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.1. PhD /Т4434

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете инженерии и агротехнологий.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Ученого совета при Термезском государственном университете инженерии и агротехнологий (<https://tdmau.uz/>) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Джамолов Рустам Камолидинович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Сафаров Нурали Кудратович
кандидат технических наук, доцент

Росулов Рузимурад Хасанович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Джиззакский политехнический институт

Защита диссертации состоится 18-марта 2025 года в 14-00 часов на заседании Научного совета PhD. 03/28.08.2024.Т.181.02 при Термезском государственном университете инженерии и агротехнологий (Адрес: 200117, г. Термез, ул. И.Каримова, 288-А Тел.: (+99876) 221-87-20; e-mail (<https://tdmau.uz/>))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий (зарегистрирован за №2). Адрес: 190100, г. Термез, ул. И.Каримова, 288-А Тел.: (+99876) 221-87-20; e-mail (<https://tdmau.uz/>)

Автореферат диссертации разослан 6 марта 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 2 от «5» марта 2025 г.).



Ф.У.Каршиев

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, доцент

О.Ш.Очилдиев

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философии по техническим наукам

М.К.Урозов

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире рост конкуренции на рынках хлопка, выращивание и регионализация новых селекционных сортов хлопка в странах, занимающиеся хлопководством, дальнейшее улучшение потребительских характеристик продукта за счет развития технологий подготовки посевных семян, снижении его оптовых цен в обмен на снижение издержек производства становится все более актуальным. Соответственно, с целью повышения качества и снижения стоимости семян хлопчатника на мировом рынке, повышения произрастание на основе отделения полновесных семян с их качественной сортировкой, снижения расхода семян, повышения устойчивости к болезням на всех стадиях производства посевных семян, а также в процессе их сортировки определить негативное влияние на качество продукции, выявление факторов влияния и их устранение, создание ресурсоэффективных технологий, снижающих себестоимость продукции являются важными задачами.

В мировой практике ведутся обширные исследования по совершенствованию техники и технологии подготовки семян к посеву. В этом направлении ставятся задачи, в том числе по разработке эффективных технологий аэродинамической очистки и сортировки опущенных семян, созданию ресурсосберегающего оборудования с устройствами, повышающими уровень просеивания при разделении семян на фракции. Важно проводить научные исследования по выявлению факторов, отрицательно влияющих на качество и количество продукции на каждом этапе производства и разрабатывать технические решения по их устранению, сохранению исходных показателей качества семян в технологическом процессе подготовки семян, снижению энергозатрат, управлению качеством продукции, оптимизации режимов и показателей работы.

В Республике реализуются комплексные меры по развитию хлопковой отрасли, модернизации и переоснащению хлопкоочистительных предприятий, повышению рентабельности производства и переработки хлопка-сырца, а также повышению конкурентоспособности выпускаемой продукции, в том числе: Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы» определена задача, в том числе “продолжение реализации промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики, увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте и рост объема производства промышленной продукции в 1,4 раза, при этом объем производства продукции текстильной промышленности будет увеличен в 2 раза...¹”.

При реализации этих задач, в том числе и при сортировке опущенных посевных семян, увеличение массы 1000 штук посевных семян приводит к увеличению их произрастаемости и высокой урожайности хлопка, поэтому

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы»

совершенствование семясортировочной установки является одним из важных вопросов.

Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 11.01.2023 г. № 11

